

## ALISHER NAVOIYNING “NASOYIMUL MUHABBAT” ASARIDA “ORIFLIK” TUSHUNCHASI VA UNING O‘ZIGA XOS TALQINLARI

Shukur JABBOROV,  
Toshkent davlat sharqshunoslik  
universiteti tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19428780>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Alisher Navoiyning "Nasoyimul muhabbat" asarida keltirilgan oriflik tushunchasi qanday talqin etilishga guvoh bo‘lamiz. Yana asarda nomlari zikr etilgan sufiylar oriflikka o‘z qarashlarini, talqinlarini aytib o‘tganligi tahlil qilinadi. Shuningdek, oriflar va ularning turlari, Alisher Navoiyning talqini bo‘yicha avliyo zotlarning tabaqalari hamda toifalari va ularning o‘ziga xos jihatlari tadqiq etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Orif, obid, olim, abdol, zohid, oshiq, qudrat, karomat, odob-axloq.

**Аннотация:** В данной статье мы станем свидетелями интерпретации понятия «арифизм», представленного в произведении Алишера Навои «Насаимуль Мухаббат». Также анализируется, что суфии, имена которых упоминаются в работе, упоминали свои взгляды и интерпретации арифизма. Кроме того, были исследованы ариффы и их виды, а также разряды и категории святых личностей в толковании Алишера Навои и их характерные особенности.

**Ключевые слова:** Ариф, абид, ученый, абдол, подвижник, любовник, власть, благодать, манеры.

**Abstract:** In this article we will witness the interpretation of the concept of “arifism” presented in Alisher Navoi’s work “Nasaimul Muhabbat”. It is also analyzed that the Sufis whose names are mentioned in the work mentioned their views and interpretations of arifism. In addition, the saints (‘arifun) and their types, as well as the ranks and categories of holy figures according to Alisher Navoi’s interpretation, along with their distinctive characteristics, have been studied.

**Key words:** Arif, abid, scientist, abdol, ascetic, lover, power, grace, manners.

### Kirish

Hazrat Alisher Navoiyning “Nasoyimul muhabbat” asarida “oriflik” tushunchasi tazkirada keltirilgan tasavvuf ahli tilidan ifodalangan. Hazrat Alisher Navoiy ushbu asarda 69 o‘rinda “orif” istilohini qo‘llaydi. Bulardan teng yarmi “Orif” ismli zotlar bo‘lsa qolgani “orif” tushunchasi shu valiy zotlar talqinida qanday ekani haqidadir. [1]

So‘z avvalida “oriflik” nima va uning qanday xos xususiyati bor, shular to‘g‘risidagi tushuncha berish lozim bo‘ladi. “Oriflik” so‘zining o‘zagi "ma‘rifat" bo‘lib, bu tushunchaning o‘zi juda katta va ko‘p ma‘no tashiydi. Maqolada biz bundan faqat tasavvufga oid ma‘nolarini qasd qilamiz. Albatta, murid yoki soliklarga oriflik martabasiga erishish uchun yaqiniy ilm asos vazifasini o‘taydi. Zero har qanday ishonch va e‘tiqodning asosini ilm va bilim tashkil qiladi. Ko‘plarga ma‘lum, tasavvuf ahli bilimni zohiriy va botiniy bilimlarga ajratadi. Naqshbandiy, Xojagonlar va shu kabi juda ko‘p tariqat talqinicha, shariat bilimlari va dunyoviy bilimlar zohiriy bilimdir. Tashqi ma‘lumotlarga egalik, ya‘ni zohiriy bilimlar Allohni bilishning birinchi bosqichidir. Allohni bilish u yaratgan borliqni tafakkur qilish, ya‘ni dunyoni bilishdan boshlanadi. Chunki moddiy olam, borliq Alloh Taoloning unda akslanishi, tajalliysi bo‘lib, ular o‘rtasida uzviy bog‘lanish, uyg‘unlik mavjud. Oriflar, sufiylar moddiy olam va uni Yaratuvchisi haqidagi hamda shariat bilimlarini ham yaqiniy ilm bu “Ilmul yaqin” deb bilganlar. Tariqat va maslakdagi solik

erishgan oriflik, ya’ni ma’rifat bosqichi esa qalb ilmi, ya’ni botiniy ilm hisoblanib, u egallagan “Haqqul-yaqin” Allohga erishish uchun tashlangan qadam hisoblanadi.

### **Asosiy qism**

Tariqat ahli tasavvufda insonlarni ibodatlari, karomat darajasiga ko’ra to’rt guruhga ajratadilar. Bu – obidlik, zohidlik, oshiqlik va oriflikdir. Endi birinchi guruh – obidlarga kelsak, ular shariat qavmidan bo’lib, Alloh-ta’loning buyurganini bajarib qaytarganidan qaytadilar. Shariat belgilab bergan halol va harom, pok va nopok haqida tushuncha hosil qilib, shariatga amal qiladilar. Obid o’z nomi bilan obid, ya’ni ibodat qiluvchidir. Obidlarning ibodatlari: namoz o’qimoq, ro’za tutmoq, zakot bermoq, hajga bormoq, nafs orzularini yengib oxirat ne’matlariga intilmoqdir.

Ikkinchi guruh-zohidlar. Zohidlar tariqat ahliga mansub bo’lib, toat ibodatlarida dunyodan yuz o’girishlarida va har qanday zohidona turmush tarzlarida Allohning roziligini topib, jannatga kirish va jahannam azobidan qutilishni maqsad qiladilar. Ularning ibodatlari kechayu-kunduz tangrini zikr aylash, qo’rquv va umid ichida nafas olmoq, orzulari esa bu dunyoda oxirat uchun yaroqli ishlarni amalga oshirmoqdir.

Uchinchi toifa – oshiqlar esa ko’p holatlari vajd va jazaba bilan o’tadigan, Alloh oshiqlaridir. Oshiqlar faqat ishq bilan nafas oladi. Ularning ishqisi esa majoziy yoki bashariy emas, balki ilohiy ishqidir.

End to’rtinchi toifa – oriflarga kelsak, ularning holati ham oshiqlar holatiga o’xshaydi. Ular ma’rifat ahlidan bo’lib, aqlu-donishda yetuk ma’rifat nuri bilan qalbi limmo-lim pok niyat, pokiza axloqli zakiy odamlardir. Oriflar hamma vaqt ezgulikni o’ylab o’ziga ergashgan odamlarni qalbiga qarab tarbiyalanganlar, ularning ruhiy-ma’naviy irodasini chiniqtirib, ko’ngil ko’zini ochib, haq yo’liga intilishni o’rgatganlar.

Oriflik Allohning tavhidida bo’lib, Unga tavakkul qilishda va ishlarni faqat Unga topshirib, Uning irodasiga foni bo’lish darajasiga yetgan kishidir. Oriflarning ibodati, tafakkur ila dunyoni va oxiratni tark qilmoq himmat nazari ila valoyatni (Allohga qurbat hosil qilishni) kutmoq va Haq taolo vasliga yetishmoq orzusidir.

Azizidin Nasafiy “Zubtatul haqoyiq” kitobida orifga shunday ta’rif beradi: “Narsa va hodisalarning botiniy mohiyatini anglasa, nazaridan hech narsa yashirin qolmasa va taqlid chegarasidan irfon chegarasiga qadam qo’ygan bo’lsa, uni donishmand-orif” deydilar.[2]

Abdulqodir Jiyloviy “Rabboniylikni anglash” kitobida esa zohid va orif darajalari xususida so’z yuritib orifga shunday baho beradi: “So’nggi (Zoxidlikdan keyingi) darajaga ko’tarilib, imkoniyati quvvalanadi, Alloh-ta’loni taniydi. U qalbiga oxiratni emas, balki mavlosiga yetishishni qaror qilib oladi. Shu vaqt dunyo amallarining mingtasi ko’rilsa ham, qalbiga zarar bermaydi. Bunda u Allohning buyrug’iga bo’ysunadi, hukmiga, taqdiriga muvofiq keladi. Alloh uchun insonlar xizmatida ularga yengillik yetkazishda qoyim turadi. Zulmatni o’rniga nurni yetkazadi”. [3]

Darhaqiqat, Alisher Navoiy talqinicha, orif Allohni tanigan, bilgan va ilohiy ma’rifatdan mukammal xabardor bo’lgan solikdir. Orif Allohning hayy (hayot), ilm, iroda, qudrat singari sifatlarini teran idrok etish yoki o’zlashtirish bilan cheklanmaydi. Balki butun koinot-borliq olamning sir-asroridan ham chuqur ogohlikka erishadi.

Orif Allohning izzati, azamati va qudratini o’ta a’lo darajada biladi. U oxirat orzusi bilan emas, Tangri taolo dargohiga talpinish bilan yashaydi. Orif zotning zohiddan farqini hazrat Maxdumi A’zam quyidagicha bayon kiladilar: “Orif bilan zohid orasidagi farq shuki, orif bamisli quyosh, zohid bamisli oy, oy tunni ravshan qilgay, quyosh esa ko’p ulug’ bo’lib, kunni ravshan aylar. Zohid Alloh ta’loning so’ziga, orif esa Uning O’ziga mashg’ul bo’lgay. Zohid xalqni ilmi zohir ila da’vat qilgay, orif xalqni ilmi botin bilan da’vat qilgay. Zohid har ne kelsa, xalqdan

ko‘rgay, orif har ne ko‘rsa Haqdan ko‘rgay, zohidning talabi behisht, orifning talabi diydor bo‘lgay...” [4]

Hozir vaqtda Alloh ta’loning orif bandalari haqidagi ma’lumotlar o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Avvalo ulug‘ ajdodlarimiz ichida oriflik darajasiga yetgan buyuk zotlarning o‘tganining o‘zi barchamiz uchun faxrlidir. Orif kishilar haqidagi ma’lumotlarni o‘rganish va ularning ta’limoti axloq- odoblaridan xabardor bo‘lish odamning o‘zini o‘zi baholashiga o‘zining kim ekanligini bilib olishga, o‘z dunyo qarashlarini, axloq-odoblarini kamol toptirishiga, xayrli amallar yo‘lida xizmat qilishiga yordam beradi.

Hazrat Navoiyning "Nasoyimul muhabbat" asarida 146-son bilan zikr etilgan Tohir Maqdisiy r. t. haqidagi bobda oriflik to‘g‘risida shunday deydi: "... Shom mashoyixining buzurglaridindur. Zunnun Misriy q. s.ni ko‘rub ermish va Yahyo Jallo bila suhbat tutubdur. Derlarki, Zunnun bila Shibliy ani Xayr ush-Shom debdurlar. Tohir Maqdisiy debdurki, Zunnun Misriy manga dedikim, Allohning zoti haqida idrok qilish johillikdir. Uning ma’rifat haqiqatidan so‘zlash hayratdir. Ishorat qiluvchining ishorati shirkidir. Va ham debdurki, asar orifning nurin ko‘rsalar, kuygaylar va agar orif ham vujud nurin ko‘rsa, kuygay..."

Kamolotga erishgan oriflarning hayoti so‘zlari va ezgu amallari bizga ibrat saboqdir. Ularning tabarruk ruhlarini shod etish, ma’rifatini o‘rganish orqali biz o‘z qalbimizni vijdonimizni tozalaymiz, hayot tarzimizni rostlik va ezgulik sari yo‘naltiramiz. Komil insonlar-oriflarning siyrati va suratida ilohiylik va insoniylik mujassamligini topgan. Ulardagi qudrat, karomat, hamda ma’naviy yetuklikni anglash ham insonning o‘zini, ham Alloh azza va jallani tanish va bilish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Xoja Ahrori valiy hikoya qiladilar: "Toshkentda ekan vaqtlarim shahar atrofida chiqib orifona suhbatlar uyushtirardik. Bir yigitcha bizning davramizni uzoqda termulib kuzatib turar, hech nari ketgusi yo‘q edi. Bir kuni tahorat olishga chiqqanimda darrov kelib, suv tutqazdi. Shunda men uning ahvolini so‘radim. Ko‘ziga yosh olib dediki: "Meni bir ko‘rinmas kuch sizlar tomon tortib turadi, sizlarga yaqinlashsam so‘zlaringizni eshitsam, ajib bir holat sezaman, quvongandan yayrayman." Xoja Ahror so‘zlarida davom etib deydilarki, "...yigit biz bilan yurib, suhbatlarimizga qatnashib ulug‘ martabalarga erishdi..."[5]

Shuningdek asarda 184-son bilan bayon qilingan Abdulmalik Iskof q.s. haqidagi bobda ta’kidlanadi: "...Shayx ul-islom debdurki, Abdulmalik Iskof Hallojning shogirdi erdi va umri yuz yigirmaga yetdi va Balxda Sharif Hamzani Uqayliy bila bo‘lur erdi va mening otam va piri Forsiy va Abulhasan Tabariy va Abulqosim Hannona barcha, Sharif Hamzai Uqayliyning yoronlari erdilar. Va Sharif maning otamni barchadin ulug‘roq tutar erdi. Otam ayttikim, Abdulmalik ayttikim, bir kun Hallojdin so‘rdumki, ey shayx, orif kimdur? Ul ayttikim, orif uldurki, uch yuz to‘qqizda, zulqa‘da oyining yigirma to‘rtida seshanba kuni oni Bag‘dodda Bobu toqqa eltgaylar va ayog‘ilgin kesgaylar va ko‘zin o‘yg‘oylar va sarnigun dordin osqaylar va tanin kuydurgoylar va kulin ko‘kka sovurg‘aylar. Men mulohaza qilub erdim, hamul tarixda ul deganlarni barchasin anga qildilar. Haykal otlig‘ shogirdin ham oning bila o‘lturdilar..." Ha demak orif kimligini Husayn Mansur Hallojdan so‘raganlarida u o‘zining ayanchli, bo‘lajak taqdirini aytib bergan. Bundan ko‘rinadiki, Halloj ham oriflik maqomini olgan.

Navoiy oriflik haqida 278-son bilan ifoda etilgan Muzaffar Kirmonshohiy Qirmisiy q. s. haqida shunday deydilar: "...Va o‘ziga zorliq qilib, bu baytlarni o‘qur erdikim, sh ye’r: Jigarimni ishq iloni chaqib oldi. Bu dardimning davosi ham, afsungari ham yo‘q. Uning yolg‘iz tabibi men ko‘ngul qo‘ygan tabibdurkim (Allohni nazarda tutmoqda – Sh.J.), afsunim ham, taryokim ham uning qo‘lidadir. Ul debdurki, orif–qalbini mavlosiga, jasadini xalqiga bag‘ishlagan kishidir..."

Miralisher Navoiy asarida 290-son bilan zikr qilingan Abdulloh b. Muhammad b. Abdurrahmon Rozii q. s.ning oriflik haqidagi tushunchasi quyidagicha: "... orif Tengri taoloni xalq muvofaqati bila parastish qilmaski, ul ish qilg‘uchidur Tengri muvofaqati bila. Va ham ul debdurki,

ma’rifat Tengri va banda orasidin hijobni ko’tarur...” Asarda 341-son bilan eslangan Abulqosim Muqriy q. s. Esa oriflik haqida bunday deydi: "...orif uldurki, ani ma’rufi mashg’ul tutqay andinki, xalqqa yo rad, yo qabul ko’zi bila boqqay. Ham ul debdurki, sodiq kishilar o’zlari va pirlari haqidagi so’zlarini tasdiqlash bilan tasvavufga baraka kira boshlaydi. Qarang, "Nasoyimul muhabbat"da 363-son bilan tazkiraga kiritilgan Xoliy Nisoburiy q. s. oriflik haqida shunday deydi: "...orif uldurki, har ne yetkurgaylar toza, ul muridlarig’a yetkurgay toza..." Bu o’rinda xolislik haqida so’z bormoqda.

Oriflik haqida so’z ketganda ayrim sufiylar o’zining har bir holatidan ogoh kishi ham tushunganlar. Ogoh – voqif, orif, oshno, xabardor, uyg’oqlik kabi ma’nolarni ham tashiydi. Tasavvuf adabiyotida orif o’zini anglagan, irfon sohibidir. So’fiylarning nuqtayi nazarida irfon Alloh tuhfası bo’lgani uchun ilmdan ustun turadi. Orif – Allohning shuhud, asmo va sifatlarini idrok etgan, mavhum borlig’idan kechib, Haq borlig’iga intilgan, qalibi bor bo’lgan kishidir. Muxtasar aytsak Hazrat Alisher Navoiy "orif" tushunchasi valiy zotlar talqinida qanday ekaniga maxsus to’xtalib o’tadi. Zero Hazrat Navoiyning o’zlari ham Allohning orif bandasidir. “Nasoyimul muhabbat” tazkirasidagi “orif” kategoriyasiga sinonim so’zlar sintaktik tahlil qilinsa, olaylik “mashoyix” so’zini o’rgansak, jumladagi vazifasi: asosan to’ldiruvchi yoki yetakchi vazifasida ishtirok etadi. Masalan: “Bu mashoyix karomati bilan xalq to’g’ri yo’lni topdilar.” Bu yerda “mashoyix” — jumladagi subyekt hisoblanadi. Semantik tahlilidan kelib chiqqanda ma’nosi: “mashoyix” — shayxlar, pirlar, katta ruhoniylar, avliyolar, murshidlar, tasavvuf yo’lida peshqadam bo’lgan zotlar. “Nasoyimul muhabbat”da bu so’z avliyolar toifasi, tasavvuf yo’lidagi mukammal insonlar, ilmiy-ma’naviy yetakchilar ma’nosini bildiradi.

### **Natija va muhokama**

Alisher Navoiyning “Nasoyimul muhabbat” asaridagi "mashoyix" so’zi lingvistik jihatdan jam shaklidagi ism bo’lib, diniy va ma’naviy kontekstda yuksak ehtirom bilan ishlatiladi. Bu so’z Navoiyning sufiylar, pirlar va ularning karomatlari haqidagi fikrlarini ifoda etishda muhim rol o’ynaydi.

Hazrat “Nasoyimul muhabbat”da “xoja” so’zi 449 marta kelgan. Muayyan jumlada “xoja” so’zi odatda fe’ldan oldin yoki nom sifatida (gap bo’lagida ega va to’ldiruvchi bo’lib keladi) ishlatiladi. “Ulug’” ma’nosidagi “kibor” so’zi 55 marta va uning ko’plikdagi “akobir” so’zi 52 marta qo’llangan. Yana asarda 13 marta “murshid” so’zi, “pir” iborasi 141 marta ishlatilgan. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, “shayx” iborasi 2550 marta qo’llangan bo’lishiga qaramay unga muobil juda ko’p tushunchalar, iboralardan foydalanilgan. Masalan, “murshid” iborasi bilan bog’liq “irshod” fe’li 50 marta ishlatilgan. Endi asarda “shayx” va “mashoyix” iboralariga yaqin tushunchalardan “darvesh” so’zi 217 marta, “rind” so’zi atigi 2 marta, “qalandar” iborasi 6 marta, bu maqomdagi zotlarni ifodalaydigan “ulug’lar” so’zi 23 marta qo’llangan. Shu iboralardan lug’aviy ma’noda “rind” — bu dunyoviy qadriyatlar, rasmiyat va namoyishkor diniy amallardan voz kechgan, hayotni ozod tarzda qabul qiluvchi kishi. Asarda haqiqiy ma’naviy tozalik va haqiqat izlovchi shaxs sifatida tasvirlanadi. Navoiyning boshqa asarlarida “rind” — tasavvufiy tafakkurning bir qismi bo’lib, u ko’pincha zohid (rasmiy dindor) obraziga qarama-qarshi qo’yiladi. Etimologiyasi: fors-turkiy til qatlamida ko’p uchraydi; forsha "رند" (rind) so’zidan olingan.

Shuningdek, 252 marta “murid”, 24 marta “solik”, 50 marta “tolib”, 114 marta “shogird” so’zlari qo’llangan bo’lib, shogird va murid ko’p o’rinda “farzand” ma’nosida ishlatilganiga guvoh bo’lamiz. Garchi yozilmagan esa-da tasavvuf lug’atida “farzand” bu shogird ma’nosini bildiradi. Chunki shogird bu – ma’naviy jihatdan farzanddir. “Farzand” atamasi 76 marta kelgan bo’lib, buning aksari “shogird” ma’nosidadir. “Shogird” atamasi “as’hoblari”, “yoronlari” shaklida ham keladi.

Murid va darveshlar tomonidan odatda piru murshidlar ziyorat qilinadi. Asarda esa “ziyosat” so’zi 79 o’rinda qo’llangan. E’tibor bergan bo’lsangiz biz “marta” degan so’zni juda ko’p ishlatmoqdamiz. Asarda esa “marta” degan sanoq so’zi ko’proq “qatla” bo’lib, u 113 o’rinda ishlatilgan. “Marta” esa asarda atigi uch marta kelgan. Darvoqe “martaba”, ya’ni maqom ma’nosida 40 o’rinda qayd etilgan.

Shu o’rinda silsilaga mansublikni bildiruvchi “suluk” so’zi 98 marta, uning o’zagi bo’lmish “solik” ya’ni, shu yo’lga amal qiluvchi 24 marta, bularni birlashtiruvchi tariq, ya’ni yo’l, xususan “maslak” 2 marta qo’llangan. Etimologiyasi: arabcha “سلوك” (sulūk) so’zidan o’zlashtirilgan. Ma’nosi: yo’l, harakat, murshid yoki sufiy yo’lidagi ma’naviy sayohat. Oddiy so’zlashuvda asosan “yo’l tutish”, “tashrif” yoki “ma’naviy yo’l” ma’nosini beradi. Sintaktik tahlil qilsak, jumla ichida so’z odatda ega yoki to’ldiruvchi sifatida ishlatiladi: Masalan: “Sulukning maqsadi poklikdir.”

Bu yerda “suluk” — ega. Semantik tahlil qilsak, nazariy ma’nosi: “ma’naviy yo’l”, sufiylikda yo’l-xizmat. Alisher Navoiy asarida kontekstida: “Suluk” — nafsni tozalash, ma’naviy va ilohiylik yo’lida sayohat qilish tushunchasi. Tasavvuf adabiyotida suluk – mukammal insonga aylanish uchun kerakli ma’naviy tarbiya va fidokorlik. “Nasoyimul muhabbat” asaridagi Navoiy bu so’z orqali nafs poklanishi va ruhiy taraqqiyotni ifoda qiladi.

Oriflar, valiylar atributi hisoblanmish “aso” so’zi 20 marta ishlatilgan bo’lib u – hasa, tasavvufda shayxlik nishoni. Ramziy ma’noda solikning valiy va eranlar nafasiga muhtojligini ifodalaydigan bir timsol: “Eranlar nafasini aso etgin sen” (Yunus Emro).

Asarda “suhbat” so’zi 370 marta kelgan bo’lib, Naqshbandiy hazratlari aytganidek, bu yo’ldagilar faqat suhbat orqali yuksak martabalar kasb etishadi. Etimologiyasi: arabcha "حديث" (ḥadīth) so’zidan o’zlashtirilgan. Ma’nosi: So’zma-so’z ma’nosida — suhbat, gaplashish, muloqot. Shuningdek, tasavvuf adabiyotlarida — ustoz va shogird o’rtasidagi ma’naviy suhbat, nafsni tarbiyalash maqsadidagi muloqot. B so’z ko’pincha didaktikani, nasihat, maslahat, dars, ma’naviy yoki ta’limiy suhbatni anglatadi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning “Nasoyimul muhabbat” tazkirasida oriflarning, shayxlarning ijtimoiy-siyosiy hayotda o’z o’rni bo’lganligini fasohat-balog’at bilan yoritib berilgan. Amir Temur va zamonasining hukmdorlari ham orif zotlarni ziyorat qilib, shayx va ulamolarning maslahat va duolarni olishgan, shuning uchun ularga ergashgan hukmdorlar ham xalq orasida katta obro’-e’tiborga ega bo’lgan:

- Hazrat Navoiyning “Nasoyimul –muhabbat” asarida valiylar olti tabaqaga ajratib keltirildi;
- tazkirada ularning qaysi tabaqaga mansubligi hamda ismi va kunyasi batafsil keltirildi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Alisher Navoiy. “Nasoyimul muhabbat min shamoyimil futuvvat”. Nashrga tayyorlovchi, so’zboshi, izoh va ko’rsatkichlar muallifi – Hamidxon Islomiy – T.: “Movarounnahr” nashriyoti, 2017 yil, -B. 575.
2. Nasafiy Aziziddin. Zubdatul haqoyiq // Komil inson haqida to’rt risola.-T: “Ma’naviyat”, 1997, B-109.
3. Muhiddin Abu Muhammad Abdulqodir Jiyloviy (G’avsul A’zam). Rabboniylikni anglash. Fathur Rabboniy. – T.: Sharq nashriyot matbaa konserni, 2001, -B 68.
4. Turayev B.O. Maxdumi A’zam (hayoti va ilmiy-ma’naviy merosi). –T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2020. 48 bet.
5. Xoja Ahror Valiy. “Faqarot ul-orifin” (“Oriflar so’zlaridan parchalar”). To’plam Alisher Navoiy buyrug’i bilan tuzilgan va shuning uchun “Navoiy albomi” deb ham ataladi (O’zR FA Sharqshunoslik instituti qo’lyozmalar fondi, raqam 2178).